

YASHIL IQTISODIYOT VA BARQAROR RIVOJLANISH

Meliqo'ziyeva Dilrabo Muxitdin qizi

Toshkent davlat iqtisodiyoti universiteti

Yozishmalar uchun electron pochta: delchibayeva@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13729531>

Annotatsiya

Ushbu maqolada yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanishning o'zaro bir-biriga ta'siri ko'rib chiqilgan. Yashil iqtisodiyot barqaror iqtisodiy rivojlanishning yorqin va ideal modeli hisoblanib, u hayotning barcha jabhalariga ta'sir qiladi. Uning kontseptsiyasi qashshoqlik va kambag'allik ko'rinishlarini kamaytirish hamda aholining turmush tarzini yaxshilash va farovonlik darajasini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Shuni ta'kidlash kerakki, barqaror rivojlanish jarayonini faollashtirishga yashil iqtisodiyot dasturini amalga oshirish va sog'lom muhitni yaratish orqali erishish mumkin. Bunda moddiy va insoniy boyliklardan samarali foydalanish, "yashil ish joylari"ni yaratishni qo'llab-quvvatlash, barcha tabiiy resurslardan oqilona foydalangan holda kelajak avlodlarga o'ziga tegishli resurslardan ishlatish huquqini berish va boylikning adolatli taqsimlanishini ta'minlash nazarda tutiladi.

Kalit so'zlar: iqtisodiy o'sish, moliyaviy barqarorlik, atrof-muhit, ifloslanish, qashshoqlik, yashil iqtisodiyot, rivojlanish, investitsiyalar, energiya.

Аннотация: В данной статье рассмотрены взаимосвязь между зеленой экономикой и устойчивым развитием. Зеленая экономика представляет собой яркую и идеальную модель устойчивого экономического развития, оказывающую влияние на все сферы жизни. Ее концепция имеет важное значение для уменьшения бедности и неравенства, улучшения качества жизни населения и повышения уровня благосостояния. Необходимо отметить, что активизация процесса устойчивого развития возможна посредством реализации программы зеленой экономики и создания здоровой окружающей среды. В этом контексте предусматривается эффективное использование материальных и человеческих ресурсов, поддержка создания «зеленых рабочих мест», рациональное использование всех природных ресурсов, предоставление будущим поколениям права на использование их ресурсов и обеспечение справедливого распределения богатства.

Ключевые слова: экономический рост, финансовая стабильность, окружающая среда, загрязнение, бедность, зеленая экономика, развитие, инвестиции, энергия.

Abstract

This article examines the interplay of green economics and sustainable development. The green economy is considered a bright and ideal model of sustainable economic development, which affects all aspects of life. In recent years, its concept has emerged due to its importance in reducing the manifestations of poverty and poverty and improving the lifestyle of the population and increasing the level of well-being. It should be noted that to activate the sustainable development process, it is possible to achieve it by implementing a green economy program and creating a healthy environment. It provides for the effective use of material and human resources, the support for the creation of "green jobs", the granting of the right to use resources belonging to oneself to future generations with the rational use of all natural resources, and ensuring a fair distribution of wealth.

Keywords: economic growth, financial stability, environment, pollution, poverty, green economy, development, investments, energy.

Kirish. So'nggi yillarda yashil iqtisodiyot va uning barqaror rivojlanishga ta'sirini o'rganish ko'pgina tadqiqotchilar uchun muhim va dolzarb mavzulardan biri bo'lib hisoblanmoqda. Yashil iqtisodiyot - bu asosan mamlakat iqtisodiyotini yaxshilash va uni rivojlantirish, ekologik xavflarni kamaytirishga qaratilgan mexanizmdir. U iqlimdagi ifloslanishni kamaytirish orqali ekologiyani yaxshilaydi. Bundan tashqari, u bandlik va investitsiya imkoniyatlarini oshirishda, qashshoqlik va kambag'allikni bartaraf etishga olib keladigan moddiy va inson resurslari bilan ta'minlashda, va ijtimoiy sinflar o'rtasidagi tafovut bu esa o'z navbatida resurslarni kelajak avlodlarga ularning kelajagini ta'minlash uchun xizmat qiladigan tarzda saqlashda muhim rol o'ynaydi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit bo'yicha Dasturi (UNEP) yashil iqtisodiyotni inson farovonligini yaxshilash, shu bilan birga ekologik xavflarni va ekologik resurslar tangisligini sezilarli darajada kamaytiradigan mexanizm deb ta'riflaydi. Oddiy qilib aytganda, bu kamroq uglerod chiqindilarini ishlab chiqarishga va barcha ijtimoiy guruhlarni resurslar bilan ta'minlashga urg'u beradigan iqtisodiyot. Resurslar samaradorligi va energiya sarfini oshirish orqali ifloslanish va uglerod chiqindilarini kamaytirishga qaratilgan. [1]

Yashil moliyalashtirishni rivojlantirish mamlakatimiz uchun atrof-muhitni muhofaza qilish mexanizmlarini yaratish, ekologiya sifatini yaxshilash, ifloslantiruvchi chiqindilarni nazorat qilish, yashil sanoatni rivojlantirish va ishlab chiqarish texnologiyasini rivojlantirishda rag'batlantirishning muhim asos bo'lib hisoblanadi. Yashil moliya kuchli ifloslantiruvchi korxonalariga nafaqat ishlab chiqarish va rivojlantirish usullariga yangi talablarni qo'yishi va ularni sanoat transformatsiyasi va modernizatsiyasini rag'batlantirishi mumkin, balki yashil loyihalar va yashil texnologiyalarni rivojlantirishni rag'batlantirishi, iqtisodiyot va atrof-muhitni birgalikda yaxshilashga imkon berishi ham mumkin. [2]

Yashil iqtisodiyot milliy iqtisodiyotlar uchun inqirozni yengish uchun uzoq muddatli strategiya sifatida tavsiflangan. U iqtisodiyotni tiklash, qashshoqlikni bartaraf etish maqsadlari bilan bir qatorda barqaror rivojlanish uchun tabiiy boyliklardan foydalanishni ta'minlab iqtisodiy o'sish va rivojlanishni rag'batlantirishga qaratilgan hamda ijtimoiy rivojlanishdagi taraqqiyotni qo'llab-quvvatlaydi.[3]

Material va metod. Iqtisodiyot barqarorligida yashil moliyalashtirishning roli bo'yicha dunyo olimlari tomonidan olib borilayotgan tadqiqodlarni tahlil qilish, mavzu yuzasidan barcha ma'lumotlarni to'plash, solishtirish, mantiqiy fikrlash kabi iqtisodiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Global iqlim o'zgarishi o'rtacha harorat ko'rsatkichining g'ayritabiiy o'sishiga olib keladi, bu esa mamlakatlarning iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi(Kahn va boshq., 2021) [4]. Boshqa tomondan, dunyo aholisining ko'payishi, ehtiyojlarning xilma-xilligi va iste'mol madaniyatining o'zgarishi hamda isrofgarchilikning ko'payishi bilan bir qatorda, qanoat, tejamkorlik, kamroq narsaga qanoat qilish va boshqalar kabi diniy-madaniy qadriyatlarining yemirilishi ham dunyoda resurslarning haddan tashqari ko'p iste'mol qilinishiga, noto'g'ri foydalanishga va atrof-muhitning ifloslanishiga olib keladi. Bu faktlar nafaqat hukumatlarning uglerod emissiyasini nazorat qilib ekologiyaga ko'proq e'tibor qaratishiga ta'sir ko'rsatadi, balki, moliya institutlari hamda individual investorlarning


investitsiya kontseptsiyasini o'zgartiradi. Buning natijasidayashil moliya va ekologik, ijtimoiy va boshqaruv jarayonlari jadal rivojlanmoqda.

Yashil iqtisodiyot ekologik xavflari va resurslar tangisligini sezilarli darajada kamaytirishga qaratilganligi bois, past darajadagi uglerod, resurslardan ogilona foydalanish va timoly integratsiyani joriy qilish mumkin. Shu nuqtai nazardan, yashil iqtisodiyot shamol energiyasidan foydalanish kabi yangi alternatalardan foydalanishi mumkin. Shamol energiyasi elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyojning 47 foizini, isitish uchun 25 foizini va transport uchun 22 foizini qondira oladi. Quyosh energetikasi darajasiga kelsak, u 2009 yilga nisbatan 66 foizga o'sgan bo'lsa, 2010 yil oxirida fotoelektr qurilmalari kichik va qisqa xarajat evaziga dunyoda 35 ming megavatt quvvatga, 35 yadroviy reaktorga teng quvvatga erishdi. Ma'lumki, yashil iqtisodiyot tabiatning ahamiyati va investitsiya foydasini anglatadi. Bu tabiiy resurslardan oqilona foydalanishdan va energiyani faollashtirishni rag'batlantirishdan tashqari, tejamkorlikni talab qiladi.[5]

Yashil iqtisodiyot resurslar va energiyadan optimal foydalanadi, shu sababli tartibsiz foydalanish uchun ishlab chiqarilmagan, balki atrof-muhitni uyg'unlashtirish va saqlash maqsadida ishlab chiqarilgan. Shunday qilib, barqaror iqtisodiy o'sish va yashil iqtisodiyotni rag'batlantirishga erishish global iqtisodiyotni uzoq davom etadigan tanazzul, ish joylarini yo'qotish va qashshoqlikning kuchayishi bosqichidan qutqaradi.

Natijalar. Mamlakatimizda ham aholi sonining ortishi natijasida resurslarga bo'lgan talabni sezilarli darajada oshishi hamda ekologiyaga ta'sir ko'rsatuvchi muammolar yechimi uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga O'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Mazkur qarorga ko'ra iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rivojlantirish, iqlim o'zgarishi oqibatlariga moslashish va tabiiy resurslarni oqilona iste'mol qilish ustuvor yo'nalishlari etib belgilandi. Ushbu belgilangan maqsadli indikatorlarga texnologiyalarni modernizatsiya qilish va moliyaviy mexanizmlarni rivojlantirish orqali erishiladi. Shuningdek, 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "yashil" iqtisodiyotga o'tish islohoti doirasida "yashil" va inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hamda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida resurslarni tejashni yanada kengaytirish masalalari belgilab olingan [6].

Yashil moliyaning asosiy maqsadi moliyaviy siyosatni qo'llab-quvvatlagan holda iqtisodiy islohotlarni ekologik barqarorlik sari yo'naltirishdan iborat. Bu yondashuv moliyaviy resurslar atrof-muhitni yaxshilashga yordam beradigan faoliyatga yo'naltirishni, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishni, resurslarni tejashhamdaularning samaradorligini oshirishni o'z ichiga oladi.



1-rasm. Barqaror rivojlanishning o'lchamlari va uning tarkibiy qismlari.¹

Yashil moliya yanada inklyuziv va barqaror iqtisodiyotni qurish uchun asosiy tadbirlardan biridir. Ayniqsa, tarix shuni ko'ratadiki, birinchi sanoat inqilobidan boshlab, moliya insoniyat taraqqiyotining qudratli omili bo'lishi mumkin. Kontseptsiyalar o'rtasidagi hamkorlik va ularning o'zaro manfaatli ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, yashil moliya iqtisodiy tenglikka hissa qo'shishini ta'kidlash mumkin. Mana eng aniq usullardan ba'zilar[8]:

- bandlikni yaratish: yashil moliyalashtirish orqali qayta tiklanadigan energiya, energiya samaradorligi, barqaror qishloq xo'jaligi va boshqa ekologik toza sohalarga investitsiyalarni jalb qilib yangi ish joylarini yaratish mumkin, xususan marginallashtirilgan guruhlar (masalan, boshlang'ich daraja) va innovatorlar hamda kichik biznes egalari uchun tadbirkorlik istiqbollari yaratishi mumkin;
- toza energiyadan foydalanish: yashil moliyalashtirish yashash darajasini yaxshilash orqali kam ta'minlangan qatlam uchun toza va arzon energiya manbalaridan foydalanish imkoniyatini oshirishi mumkin. Shuningdek, bu kichik biznesning yanada samarali faoliyat yuritishini ta'minlagan holda uning iqtisodiy imkoniyatlarni ham oshirishi mumkin;
- inklyuziv moliya: yashil faoliyat bilan shug'ullanadigan jismoniy shaxslar va korxonalar uchun arzon kreditlar va mikrokreditlar kabi moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini taqdim etish orqali yashil moliyalashtirish inklyuziv moliya yashil investitsiyalar bilan birlashtirishi mumkin, bu ularga barqaror loyihalarga sarmoya kiritish va o'z bizneslarini hatto kichik miqyosda rivojlantirish imkonini beradi;
- jamiyatni rivojlantirish: yashil infratuzilmani barpo etish va shahar hududlarini qayta tiklash hamda toza suv va kanalizatsiyadan foydalanishni yaxshilash orqali yashil loyihalar jamiyatda yashash sharoitlarini yaxshilaydi va iqtisodiy imkoniyatlar yaratadi (masalan, qayta ishlash loyihalari);
- barqaror qishloq xo'jaligi: qishloq xo'jaligi sohasida hosildorlik va daromadni oshirishdan tashqari, yashil moliyalashtirish, bilim va texnologiyalardan foydalanish ham barqaror

¹Hajila R and Rafeeqa B 2016 Development from the Concept of Economic Development to the Concept of Human Development, *Journal of Studies in Development and Society*, 3, pp.2-3,7-9.

dehqonchilik metodlari uchun oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashi mumkin. Bu kichik fermerlarning imkoniyatlarini kengaytiradi va ularga katta foyda keltiradi;

- “yashil” texnologiyalardan foydalanish: kam ta'minlangan uy xo'jaliklariga yashil texnologiyalarni, masalan, quyosh panellari va energiya tejaydigan qurilmalarni o'rnatish uchun yashil moliya orqali moliyalashtirishni ta'minlashi mumkin. Ekotexnologiyalardan foydalanish energiya xarajatlarini kamaytirishi, uy xo'jaliklari farovonligini oshirishi va hatto ularni ekologik muammolarni hal qilish uchun innovatsion yechimlarga jalb qilishi mumkin;
- yashil bozorlarga kirish: jamiyatdagi kam ta'minlangan qatlamning yashil ta'minot zanjirlari va bozorlariga (masalan, qayta tiklanadigan energiya, regenerativ qishloq xo'jaligi, ekoturizm va ekologik toza mahsulotlar) qo'shilishini qo'llab-quvvatlash orqali yashil moliya uzoq yoki qashshoq mintaqalarda ishlab chiqaruvchilar uchun iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirishi mumkin. Masalan, ushbu hududlarda ma'lum bo'lgan dorivor ahamiyatga ega o'simliklar yashirin iqtisodiy salohiyatni ochishi mumkin. Yashil moliyalashtirish tadqiqot laboratoriyalari va butun jamoalarga foyda keltiradigan boshlang'ich korxonalar uchun mablag' ajratishi mumkin.

Yashil moliya umumiy inklyuziv iqtisodiyotni rag'batlantirishning bir qismi sifatida moliyaviy inklyuzivlikni tezlashtirish uchun bir qator mexanizmlar va strategiyalarni taqdim etadi. Ushbu kontekstda yashil moliya yo'nalishi, shuningdek, zaif jamoalarga barqarorlikni rivojlantirish va iqlim o'zgarishi bilan bog'liq yo'qotishlarning ta'sirini minimallashtirishda moliyaviy inklyuziya rolini kuchaytirishdan iborat.

Xulosa. Bizning tadqiqotimiz bir nechta muhim natijalarni berdi, ulardan eng muhimlari:

1- Yashil iqtisodiyot kontseptsiyasi insonning turmush darajasini yaxshilashga qaratilgan bo'lib, farovonlikka erishish va uning turli shakllarida barqaror rivojlanishga erishishdan iborat.

2- Yashil iqtisodiyotni turli sohalarda iqtisodiy tiklanishga erishishga qaratilgan uzoq muddatli strategiya sifatida tavsiflash mumkin.

3- Yashil iqtisodiyot ifloslanishni kamaytirishni va energiyadan yangi usullarda foydalanishni rag'batlantiradi hamda inson va moddiy resurslarni saqlash va uglerod chiqindilarini kamaytirish, shuningdek, ijtimoiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlaydi.

4- Yashil iqtisodiyot ikki darajaga ega. Birinchisi qisman. Eng muhim vazifalardan biri buifloslanish xavfini kamaytirish uchun ekologik investitsiyalarni o'rganish, ikkinchisiesa ekologik muammolarni o'rganish va kamaytirish bilan shug'ullanadigan makro daraja.

5- Yashil iqtisodiyotga erishish va unga o'tish oson jarayon emas. Aksincha, bu keng jamoatchilik ishtirokini talab qiladigan uzoq va mashaqqatli jarayon hisoblanadi, hamda u aholi jon boshiga yuqori daromad keltiradi.

References:

1. United N 2011 Towards a green economy: Pathways to sustainable development and poverty eradication - a reference for policymakers, Franc, pp.1-5.
2. Wei Hua, Yihe Li, Research on the Relationship between Economic Growth and Environmental Quality from the Perspective of Green Finance (In Chinese) [J], Shandong Social Sciences, 2023, pp. 131-140, 3.

3. Lavrinenko O, Ignatjeva S, Ohotina A, Rybalkin O and Lazdans D 2019 The Role of Green Economy in Sustainable Development (Case Study: The EU States), *Entrepreneurship and Sustainability Issues*, 6 (3):1115.
4. Kahn, M. E., Mohaddes, K., Ng, R. N. C., Pesaran, M. H., Raissi, M., & Yang, J.-C. (2021). Long-term macroeconomic effects of climate change: A cross-country analysis. *Energy Economics*, 104, Article 105624.
5. Ismail S 2014 The contribution of the green economy to achieving sustainable development in Algeria during the period 2005-2007, *Journal of Studies in Economy*, 3(2):149-150.
6. 2030 yilgacha O'zRning "yashil" iqtisodiyotga o'tishga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti.
7. Hajila R and Rafeeqa B 2016 Development from the Concept of Economic Development to the Concept of Human Development, *Journal of Studies in Development and Society*, 3, pp.2-3,7-9.
8. Ozili, P. Green finance research around the world: A review of literature. *Int. J. Green Econ.* 2022, 16, 56-75.
9. Bhutta, U. S., Tariq, A., Farrukh, M., Raza, A., & Iqbal, M. K. Green bonds for sustainable development: Review of literature on development and impact of green bonds. *Technol Forecast Soc Change* 2022;175:121378.
10. Opferkuch, K., Caeiro, S., Salomone, R., & Ramos, T. B. Circular economy in corporatesustainability reporting: A review of organisational approaches. *Bus Strategy Environ* 2021;30(8):4015-4036.
11. Green economy and sustainable development To cite this article: Suaad Hadi Hassan Al-Taai 2021 IOP Conf. Ser.: Earth Environ. Sci. 779 012007